

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH ORGANLARI VA TASHKILOTLARINING TIZIMLASHTIRILGAN FAOLIYATI

Mihliyev Aziz

Toshkent amaliy fanlar universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

+998977759889

Mihliev@gmail.com

Annotatsiya: korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarning qonun hujjatida belgilab berilgan. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning belgilab qo'yilgan. Yangi O'zbekiston Yangicha dunyoqarashni fuqarolarimizda shakllatirishda muhim o'rinn egallaydi.

Kalit so'zlar: korrupsiya, xavf, Anti-korruption, hujjat, qonun, huquqiy ong, huquqiy madaniyat.

Abstract: The legislative document defines measures to prevent corruption. The bodies and organizations implementing and participating in the fight against corruption are determined. New Uzbekistan plays an important role in shaping a new worldview among our citizens.

Keywords: corruption, risk, Anti-corruption, document, law, legal awareness, legal culture.

Абстрактный: Меры по предупреждению коррупции изложены в законодательстве. Определены органы и организации, осуществляющие и участвующие в противодействии коррупции. Новый Узбекистан играет важную роль в формировании нового мировоззрения наших граждан.

Ключевые слова: коррупция, риск, противодействие коррупции, документ, закон, правосознание, правовая культура.

Kirish

O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashning kompleks chora-tadbirlari ishlab chiqildi. Va dunyoda yetakchi o'rinni egallab turibdi. Korrupsiya jamiyatning barcha qatlamlariga kirib, mamlakatga tuzatib bo'lmaydigan zarar yetkazmoqda. Ushbu hodisa kecha paydo bo'limgan va jiddiy xavf tug'diradi. 2017-yil 3-yanvarda "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuninining qabul qilinshi - bu sohada yangi bir sahifani ochib berdi. Ushbu qonun hujjati quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega" Birinchidan, unda Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning belgilab qo'yilganligi bo'lib, bu sohada tizimli ishlar olib borishi Anti-korruption ishlarning tizim sifatida tashkil qilinishiga yordam beradi. Ikkinchidan, korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish masalasiga qonun hujjati doirasida alohida to'xtalgani va uni tashkil qilishning omillari, amalga oshirish mexanizmlarining belgilanganligimuhim xususiyatlardan biri bo'ldi. Uchinchidan, korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarning qonun hujjatida belgilab berilganligi xususiyati bo'lib, bu belgilangan chora-tadbirlar, nafaqat korruptsiyaga qarshi qonunchilik va jazo choralar bilan kurashni, balki uni oldini olish, buning uchun esa fuqaroning huquqiy ongni va madaniyati yuksaltirish bilan birga, jamiyatda korruptsiyasiz hayotni tashkil qilish uchun barcha shartsharoitni yaratashih omiliga keng to'xtab o'tilgan. To'rtinchidan, Korruptsiyaga oid huquqbazarliklarni aniqlash, ularga chek qo'yish, javobgarlikning muqarrarligi

xususiyati bo‘lib, bu huquqiy demokratik jamiyat tizimining eng asosiy elementi bo‘lgan qonunlarning imperative xususiyatlarini, va qilingan qilmish uchun jazoning albatta berilishi, bu borada qonunni qo‘llash amaliyotini amalga oshirish haqida turli tamoyillar va harakatlarning o‘ziga xos xususiyatlari haqida to‘xtab o‘tilgan. Umuman olganda, bu qonun bugungi kunda oldimizga qo‘yan eng ezgu maqsadlarimiz, milliy g‘oyamizda ifoda qilayototgan Yangi O‘zbekiston Yangicha dunyoqarashni fuqarolarimizda shakllatirishda muhim o‘rin egallaydi.

Agar e’tibor qaratadigan bo‘lsak rivojlanmagan yoki endi rivojlanayotgan mamlakatlar ijtimoiy hayotida korruptsion holatlarni ko‘proq uchratish mumkin. Darhaqiqat, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga va huquqiy madaniyati rivojlangan jamiyatga ega mamlakatlarda korruptsiya darajasi pastroq va ular davlat hokimiyatining parchalanishini yaqqol namoyish etadigan “quyi” yoki ichki korruptsiya darajasiga ega. Shu sabab korruptsiya bilan bog‘liq holatlarni kamaytirishda davlat institutlari eng avvalo faol fuqarolik pozitsiyasiga ega aholi qatlamini shakllantirishi va ularga suyanishi kerak. Bu borada davlatimiz rahbari fikr bildirar ekanlar “Davlat va jamiyat rivojiga, xalqningadolatga bo‘lgan ishonchiga jiddiy putur etkazadigan xavf – korruptsianing oldini olish va unga qarshi keskin kurashish borasida ham aniq choralar ko‘rilganini alohida ta’kidlash lozim”, - deydi. Bugungi taraqqiy topayotgan jamiyatning alohida xususiyati shundan iboratki, davlat tashkilotlari va unda yashovchi xalq o‘rtasida o‘zaro begonalashish kuzatilmoqda, bu albatta jamiyat va jamoat tashkilotlari o‘rtasida o‘zaro aloqaning yo‘qligidir.

Davlat organlarining korrupsiya qarshi kurashishdagi roli juda muhim. Ularning faoliyatini samarali tarzda olib borish va korrupsiya qarshi chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali davlatning ishonchliligi va samaradorligini oshirish mumkin. Davlat organlari korrupsiya qarshi kurashishda qanday faoliyatlarni olib borishi mumkinligini quyida ko‘rib chiqamiz:

1. Qonuniy asoslarni yarating

- korrupsiya qarshi kuchli qonuniy baza yaratish. Bunga qamoq jazosi, moliyaviy jarimalar va boshqa jazo choralarini o‘z ichiga olgan qonunlarni ishlab chiqish va amalga oshirish kiradi.
- maxsus strategiyalar va dasturlar ishlab chiqish, masalan, korrupsiya qarshi kurashish bo‘yicha milliy strategiya.

2. Faoliyatni ochiqlash va shaffoflikni ta’minalash

- davlat organlari tomonidan chiqarilgan qarorlar, moliyaviy hisobotlar, tender natijalari kabi ma’lumotlarni ochiq va erkin kirish imkoniyati bilan ta’minalash.
- elektron tizimlar va onlayn platformalar orqali davlat organlari faoliyatini avtomatlashtirish va monitoring qilish.

3. Jamoatchilik nazorati

- Fuqarolar va jamoat tashkilotlarini korrupsiya qarshi kurashda faol ishtirok etishga jalb qilish.
- mustaqil tekshiruv va nazorat tashkilotlarini (masalan, korrupsiya qarshi kurashuvchi komissiyalar) tuzish va ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash.

4. Trening va ta’lim

- davlat organlari xodimlarini korrupsiya qarshi kurash, etik va qonuniy masalalar bo‘yicha muntazam ravishda o‘qitish va treninglar o‘tkazish.

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

ANDIJON, 2025

- fuqarolarni korrupsiyaning oqibatlari, huquqlari va majburiyatlari haqida xabardor qilish.

5. Ichki nazorat va monitoring

- davlat organlari ichida korrupsiyani aniqlash va oldini olish uchun ichki nazorat mexanizmlarini joriy etish.

- mustaqil audit va tekshiruvlarni o'tkazish, korrupsiyaviy holatlar aniqlansa, ularga qarshi tegishli choralar ko'rish.

6. Qonunbuzarliklarni Jazolash

- korrupsiyaga aloqador bo'lgan shaxslarni jazolash tizimini kuchaytirish, shu jumladan, qamoq jazosi, moliyaviy jarimalar va lavozimdan bo'shatish.

- korrupsiyaviy holatlar va ularga tegishli jazolar haqida jamoatchilikni xabardor qilish.

7. Xalqaro hamkorlik

- xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro shartnomalar va bitimlarni amalga oshirish.

- boshqa davlatlarning korrupsiyaga qarshi kurashish tajribasini o'rganish va moslashtirish.

8. Korruptsiyaviy harakatlarga qarshi chora-tadbirlar

- har bir davlat organida korrupsiyaga qarshi aniq qoidalar va tartiblarni ishlab chiqish.

- tashqi tashkilotlar tomonidan davlat organlarining faoliyatini tekshirish va baholash.

Xulosa

Davlat organlarining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faoliyati ularning umumiyligi samaradorligi va ishonchliligin oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonuni.(2019) O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 1-son, 2-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.01.2019-y., 03/19/516/2484-son; 24.05.2019-y., 03/19/542/3177-son, 2019-y., 2-son, 47-modda)

2. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ ҳалқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. –Тошкент: Ўзбекистон, 2019. 65-бет.

3. Zarifjon Teshaboyev "Korrupsiya va uning oldini olish: O'zbekiston tajribasi". Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Yuridik Akademiyasi nashriyoti, 2015.

4. Shokhrukh Xolmatov "Davlat boshqaruvidagi korrupsiya va unga qarshi kurash strategiyalari". Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Boshqaruv Akademiyasi, 2021.

5. Xolmatov Rustam "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashishda innovatsion yondashuvlar va texnologiyalar" desser... 2020.

6. Yusupov Jasurbek. "Huquqiy nazorat va jamiyatdagi korrupsiyaga qarshi kurash". Tashkent: Yuridik axborot markazi, 2018.

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

ANDIJON ,2025

7. Yusupov Shokhrukh “Korrupsiyaga qarshi kurashishda iqtisodiy va boshqaruvi tamoyillari: O‘zbekiston tajribasi” desser...2018.
8. Я.И. Кузьминов. Тезисы о коррупции Государственный. университет высшая школа экономики. – Москва: [б. и.]. 2000. – 38 с.
9. Yu.Yu.Isomiddinov “Коррупциянинг давлат ва жамият бошқаруви барқарорлигига та’сирини камайтириш механизмлари” (ижтимоий-фалсафий таҳлил) дисс.2021 й 30-бет.